

Ijodiy bayonni yozish bo'yicha ko'rsatma:

Bayon uchun tanlangan matnning bir qismi o'qib eshittiriladi. O'quvchi matnni diqqat bilan tinglab, ijodiy fikrlab, taxminlari asosida mantiqan davom ettiradi.

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- o'z fikrlarini imlo qoidalariga amal qilgan holda yozma tarzda ifodalaydi;
- kiritmalardan foydalana oladi;
- nutq sofligini buzuvchi birliklarni farqlay oladi;
- matnda qo'shma gaplardan o'rinli foydalana oladi.

Baxt kaliti

Bir savdogar o'g'lini eng katta donishmandning huzuriga baxtning kaliti – sirini bilib kelish uchun jo'natibdi. Yigit sahroda qirq kun yo'l yuribdi va nihoyat, ulkan tog'ning tepasida haddan ziyod muhtasham bir qasrni ko'ribdi. U qidirgan donishmand shu qasrda yashar ekan. Kutganiga zid o'laroq qasr avliyo odamning xilvat go'shasiga o'xshamasdi. Uning ichi odamga to'la edi: savdogarlar mollarini maqtab har tomon yugurishar, burchak-burchaklarda odamlar to'p-to'p bo'lib gurunglashar, sozandalarning kichik bir dastasi qandaydir nafis kuyni ijro etar, zalning o'rtasida esa kattakon stol, uning ustiga dasturxon tuzalgan, dasturxon esa bu yurtning eng noyob va taniq taomlari, bag'oyat xushta'm noz-ne'matlariga to'la edi. Donishmand shoshmasdan mehmonlar bilan birma-bir ko'rishib chiqdi. Yigit navbati kelishini ikki soatcha kutib qoldi. Nihoyat, donishmand yigitning nima maqsadda kelganini bildi, lekin hozir unga baxtning kaliti – siri nimada ekanini tushuntirib berishga vaqti yo'q ekanini aytdi. Donishmand yigitga chiqib qasrni tomosha qilishni va ikki soatlardan keyin bu yerga – zalga qaytib kelishni buyurdi. "Sendan yana bir iltimosim bor, – dedi u yigitga ichiga ikki tomchi yog' solingan choy qoshig'ini uzatib. – Bu qoshiqni o'zing bilan olib yur, faqat ehtiyot bo'l, ichidagi yog'i to'kilib ketmasin".

Yigit qoshiqdan ko'zini uzmagani holda qasrni aylandi, uning zinalaridan tepaga ko'tarildi, pastga tushdi va, nihoyat, ikki soat o'tgach, Donishmandning ro'parasida yana namoyon bo'ldi.

"Xo'sh, qalay, – deb so'z qotdi donishmand. – Koshonadagi fors gilamlari senga manzur bo'ldimi? Benihoya mirishkor bog'bonlar o'n yiidan beri ko'zining oq-u qorasidek avaylab parvarish qilayotgan bog'dagi gullar va daraxtlar yoqdimi? Kutubxonadagi qadimiy kitoblar va nodir qo'lyozmalar-chi?"

Xijolatdan qizarib ketgan yigit bularning hech qaysisini ko'rmaganini tan oldi, negaki, uning butun diqqat-e'tibori donishmand unga ishonib topshirgan ikki tomchi yog'da bo'lgan ekan.

"Bor, orqangga qayt, mening uyimdagi hamma mo'jizalarni ko'rib kel, – debdi donishmand. – Odam qayerda va qanday yashashini bilmay turib, unga ishonib bo'lmaydi"...

Ijodiy bayonni davom ettirish uchun yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlar.

1. Donishmand qanday joyda yashaydi? Bu joy sizda qanday taassurot qoldirdi?
2. Donishmand yigitga nega choy qoshig‘idagi ikki tomchi yog‘ni beradi?
3. Donishmand qanday inson sifatida gavdalanadi? Uning donoligi nimada namoyon bo‘ladi?
4. Sizningcha, “baxtning kaliti” nimada? Hikoyadan siz qanday saboq oldingiz?

Ijodiy bayonni baholash mezonlari (50 ball)

Baholash mezonlari	50 ball
Matnni davom ettirishda yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlardan unumli foydalangan, kiritma va qo‘shma gaplarni o‘rinli qo‘llagan; ijodiy yondosha olgan; fikrlarini mantiqan to‘g‘ri va ravon, aniq tartibli ifoda eta olgan; ishni kutilmagan yechim bilan xulosalay olgan; imlo talablariga rioya qilgan bo‘lsa –	46 – 50 ball
Matnni davom ettirishda yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlarini izohlashda biroz og‘ish kuzatilgan bo‘lsa-da, kiritma va qo‘shma gaplardan o‘rinli foydalangan; ijodiy yondosha olgan; ishni kutilmagan yechim bilan xulosalay olgan; imloga oid 1-2 ta xatolik kuzatilgan bo‘lsa –	36 –45 ball
Matnni davom ettirishda yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlarini izohlashda biroz og‘ish kuzatilgan; kiritma va qo‘shma gaplardan qisman foydalangan bo‘lsa-da, ishga ijodiy yondosha olgan va kutilmagan yechim qila olgan; imloga oid 4-5 ta xatolik kuzatilgan bo‘lsa –	26 – 35 ball
Matnni davom ettirishda yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlarini izohlashda biroz og‘ish kuzatilgan; kiritma va qo‘shma gaplardan qisman foydalangan hamda oddiy, kutilgan yechim bilan xulosa qilgan; imloga oid 7-8 ta xatolik kuzatilgan bo‘lsa –	16 – 25 ball
Matnni davom ettirishda yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlardan foydalana olmagan (yoki qisman foydalangan), shu sabab fikrlarini izohlashda tartibsizlikka yo‘l qo‘ygan; kiritma va qo‘shma gaplardan o‘rinli foydalanmagan, shuningdek, ish xulosalanmagan; yozma ish imlo talablariga javob bermagan bo‘lsa –	1 – 15 ball